

## IQTISODIYOT YO'NALISHI TALABALARIDA TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING FAOL METODLARI

Yaxshimuratova Sevara Rustam qizi  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti  
Email: yaxshimuratovasevar@gmail.com

**DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21929739>**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada iqtisodiyot yo'nalishi talabalarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning faol metodlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Ilgari ishlab chiqilgan pedagogik model asosida muammoli o'qitish, case-study, loyiha metodi, brainstorming, ilmiy tadqiqot metodi va portfolio metodi tadqiqotchilik kompetensiyasining tarkibiy komponentlarini rivojlantirishdagi o'zni bo'yicha ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu metodlarni amalga oshirish shakllari, vositalari va samaradorligini baholash mexanizmi yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** faol metodlar, tadqiqotchilik ko'nikmalari, muammoli o'qitish, case-study, loyiha metodi, iqtisodiyot ta'limi.

**Аннотация.** В данной статье теоретически и практически анализируются активные методы развития исследовательских умений у студентов экономического направления. На основе ранее разработанной педагогической модели рассматривается роль проблемного обучения, кейс-стади, метода проектов, мозгового штурма, метода научного исследования и метода портфолио в формировании структурных компонентов исследовательской компетенции. Также освещаются организационные формы, средства реализации данных методов и механизм оценки их эффективности.

**Ключевые слова:** активные методы, исследовательские умения, проблемное обучение, кейс-стади, метод проектов, экономическое образование.

**Abstract.** This article provides a theoretical and practical analysis of active methods for developing research skills among economics students. Based on a previously developed pedagogical model, the role of problem-based learning, case-study, the project method, brainstorming, the scientific research method, and the portfolio method in forming the structural components of research competence is examined. The organizational forms, tools for implementing these methods, and the mechanism for evaluating their effectiveness are also addressed.

**Keywords:** active methods, research skills, problem-based learning, case-study, project method, economics education.

**Kirish.** Zamonaviy oliy ta'lim tizimida bilim uzatishga qaratilgan an'anaviy paradigma o'z o'rnini talabani faol subyekt sifatidagi tadqiqot jarayoniga jalb qiluvchi yondashuvga bo'shatib bermoqda. Bu tendensiya J. Dyui tomonidan ilgari surilgan ta'lim falsafasiga borib taqaladi - unga ko'ra bilim faqat tayyor holda uzatilmaydi, balki shaxsning faol tajriba va tadqiqot orqali qayta quriladigan jarayonidir [1].

Iqtisodiyot yo'nalishi o'ziga xos xususiyatga ega: bu yerda talaba nafaqat nazariy tushunchalarni o'zlashtirishi, balki statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, iqtisodiy jarayonlarni modellash va xulosalarni ilmiy asoslash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, A. Kalmaning tadqiqotida qayd etilganidek, biznes va iqtisodiyot yo'nalishi talabalarining katta qismida ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilish va tadqiqot natijalarini ilmiy asoslash ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagan [2].

O'zbek tadqiqotchilaridan S.N. Allayarova ham talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga jalb etishda professor-o'qituvchining pedagogik mahorati hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini, biroq bu jarayonning ko'pincha tizimli va faol metodlarga emas, balki alohida tashabbuslarga tayangan holda amalga oshirilayotganini ta'kidlaydi [3]. Bu holat ko'p jihatdan o'qitish jarayonida qo'llaniladigan metodlarning passiv-reproduktiv xarakterda qolib ketayotgani bilan bog'liq.

Shu bois talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning faol metodlarini ilmiy asoslash, ularni tizimlashtirish va amaliyotga tatbiq etish yo'llarini ishlab chiqish nazariy va amaliy ahamiyatga ega dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Pedagogika fanida “faol metod” tushunchasi ta'lim oluvchining passiv tinglovchidan bilim va ko'nikmalarni mustaqil izlash, tahlil qilish hamda amaliyotga tatbiq etish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishini anglatadi. O'zbek olimi A.A. Abduqodirov pedagogik texnologiyalarni tahlil qilar ekan, faol metodlarning mohiyatini ta'lim oluvchining bilish faoliyatini tashkil etish shakli sifatida emas, balki uning

mustaqil fikrlash, muammoni ko'ra bilish va yechim topish qobiliyatini rivojlantiruvchi vosita sifatida talqin qiladi [4].

R.A. Kutbiddinova va uning hammualliflari oliy ta'lim muassasalarida interaktiv metodlarning qo'llanilishini o'rganib, bunday metodlar an'anaviy ma'ruza-seminar tizimidan farqli o'laroq talabanning bilim olish jarayonidagi rolini tubdan o'zgartirishini - u tayyor ma'lumotni qabul qiluvchidan bilim yaratuvchiga aylanishini asoslab beradi [5]. Ularning fikricha, interaktiv va faol metodlarning samaradorligi, avvalambor, talabanning fikrlash faoliyatini rag'batlantirish, guruhda hamkorlikda ishlash va olingan natijalarni tanqidiy baholash imkoniyatini yaratishida namoyon bo'ladi.

Faol metodlarni tadqiqotchilik ko'nikmalari kontekstida ko'rib chiqqanda, ularning vazifasi shunchaki bilim uzatishni jonlantirish emas, balki talabada tadqiqotchilik faoliyatining barcha bosqichlariga xos bo'lgan komponentlarni - motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-amaliy va refleksiv-baholash komponentlarini - bir vaqtning o'zida shakllantirishdan iborat.

Shu nuqtai nazardan, faol metodlarni tanlash va qo'llashda ular quyidagi ikki talabga javob berishi lozim:

- birinchidan, talabani real yoki realga yaqin muammoli vaziyat bilan yuzma-yuz qo'yishi;

- ikkinchidan, uning bu vaziyatni mustaqil tahlil qilish, dalillash va natijani taqdim etish jarayonini nazorat qilish imkonini berishi.

Ishlab chiqilgan modelning “Faoliyat metodlari” komponentiga muvofiq, iqtisodiyot yo'nalishi talabalarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda quyidagi faol metodlar tizimli tarzda qo'llaniladi.

#### *Muammoli o'qitish metodi*

Muammoli o'qitish talabani tayyor yechimi bo'lmagan real yoki real vaziyatga yaqinlashtirilgan iqtisodiy muammo bilan yuzlashtirishga asoslanadi. A.A. Tawfik va hammualliflari muammoli o'qitishning turli ta'lim bosqichlarida qo'llanilishini tahlil qilib, uning eng muhim afzalligi - ta'lim oluvchida muammoni mustaqil formulalash, mumkin bo'lgan yechim yo'llarini izlash va tanlangan yechimni dalillash ko'nikmalarini bir vaqtda rivojlantirishda ekanligini ko'rsatadilar [6]. Iqtisodiyot yo'nalishida bu metod, masalan, talabaga real makroiqtisodiy statistika asosida “nima uchun inflyatsiya darajasi kutilganidan yuqori bo'ldi” kabi ochiq savolni taqdim etish va uni mustaqil tahlil qildirish orqali amalga oshiriladi.

#### *Case-study (aniq vaziyatlarni tahlil qilish) metodi*

Case-study metodi talabalarga real kompaniya, tarmoq yoki makroiqtisodiy vaziyatga oid keys materiallarini tahlil qilish, muammoni aniqlash va asoslangan qaror qabul qilishni taklif etadi. V. Seshan va hammualliflarining tadqiqotida ko'rsatilishicha, keys-tahlil ta'lim oluvchilarda nafaqat nazariy bilimni amaliyotga tatbiq etish, balki bir nechta mumkin bo'lgan yechimlarni qiyoslab, ular orasida eng asoslangan variantni tanlash ko'nikmasini shakllantiradi [7]. Bu metod iqtisodiyot ta'limida ayniqsa qimmatli, chunki u talabani real biznes yoki makroiqtisodiy qarorlar ortidagi murakkab ko'p omilli mantiqqa duch keltiradi.

#### *Loyiha metodi*

Loyiha metodi talabalarining ma'lum bir muddat davomida mustaqil yoki guruh holida tadqiqot loyihasini rejalashtirish, amalga oshirish va natijalarni taqdim etish faoliyatini nazarda tutadi. D. Kokotsaki, V. Menzies va A. Vigginsning adabiyotlar tahliliga ko'ra, loyihaviy ta'lim ta'lim oluvchilarda o'z-o'zini boshqarish, vaqtni rejalashtirish, hamkorlikda ishlash hamda yakuniy natijaga mas'uliyat bilan yondashish kabi tadqiqotchilikka xos fazilatlarni rivojlantiradi [8]. Iqtisodiyot yo'nalishida bu metod, masalan, talabaga mahalliy bozor yoki tarmoq bo'yicha mustaqil tadqiqot loyihasini bajarish va uni ilmiy hisobot shaklida taqdim etish topshirig'i orqali amalga oshiriladi.

#### *Brainstorming (fikrlar hujumi) metodi*

Brainstorming metodi talabalar guruhida qisqa vaqt ichida iqtisodiy muammoga oid mumkin bo'lgan barcha g'oya va gipotezalarni erkin taklif qilish jarayonini tashkil etishga xizmat qiladi. Bu metod tadqiqot mavzusini tanlash va gipotezalarni shakllantirish bosqichida talabalarining tanqidiy va ijodiy fikrlashini faollashtiradi, shuningdek ularda o'z fikrini ochiq bildirish va boshqalarning g'oyalarini konstruktiv baholash ko'nikmasini rivojlantiradi.

#### *Ilmiy tadqiqot metodi*

Ilmiy tadqiqot metodi talabani to'liq ilmiy izlanish sikliga - muammoni asoslashdan tortib, ma'lumot yig'ish, tahlil qilish va xulosalarni rasmiylashtirishgacha - bevosita jalb qilishni nazarda tutadi. Bu metod talabalar ilmiy to'garaklari, kurs va bitiruv malakaviy ishlari doirasida amalga oshiriladi hamda modelning barcha to'rtta komponentini (motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-amaliy, refleksiv-baholash) yaxlit tarzda rivojlantiradi.

#### *Portfolio metodi*

Portfolio metodi talabani butun o'quv davri mobaynidagi tadqiqot faoliyati natijalarini (maqolalar, tezislar, loyiha hisobotlari, taqdimotlar) tizimli to'plash va ularni davriy ravishda tahlil qilishga asoslanadi. Bu metod, birinchi navbatda, refleksiv-baholash komponentini rivojlantirishga xizmat qiladi - talaba o'z tadqiqotchilik faoliyatidagi o'sishni vaqt davomida kuzatish va baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Sanab o'tilgan metodlarning barchasi bir-biridan ajralgan holda emas, balki modelning “Tashkiliy shakllar” (seminar, ilmiy to'garak, konferensiya) va “Vositalar va resurslar” (LMS-platformalar, ilmiy bazalar, tahliliy dasturlar) komponentlari bilan uzviy bog'liq holda, yaxlit pedagogik jarayon doirasida qo'llaniladi.

Faol metodlarning samaradorligi ko'p jihatdan ularning qanday tashkiliy shakllar doirasida va qanday vositalar yordamida amalga oshirilishiga bog'liq. Ishlab chiqilgan modelga muvofiq, bu ikki komponent faoliyat metodlari bilan uzviy o'zaro ta'sirda bo'ladi.

Tashkiliy shakllar. An'anaviy ma'ruza va seminar mashg'ulotlari faol metodlarni joriy etish uchun boshlang'ich maydon bo'lib xizmat qiladi - bu yerda muammoli savollar va qisqa keyslar orqali talaba tadqiqotchilik faoliyatiga bosqichma-bosqich jalb etiladi. Ilmiy to'garaklar va ilmiy konferensiyalar esa talabani mustaqil tadqiqot natijalarini kengroq ilmiy muhitda sinovdan o'tkazish, muhokama qilish va himoya qilish imkonini beradi. Startap va loyiha faoliyati, o'z navbatida, tadqiqotchilik ko'nikmalarini amaliy-tadbirkorlik kontekstiga olib chiqadi - talaba o'z tadqiqot natijalarini nafaqat ilmiy, balki amaliy-tijorat nuqtai nazaridan ham asoslashga o'rganadi.

Vositalar va resurslar. Zamonaviy sharoitda faol metodlarning samarali qo'llanilishi raqamli vositalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Moodle kabi LMS-platformalar o'qituvchi va talaba o'rtasidagi tadqiqot topshiriqlari, fikr-mulohaza va baholash jarayonini uzluksiz kuzatib borish imkonini beradi. Google Scholar, Scopus va Web of Science kabi ilmiy bazalar talabani ishonchli va dolzarb ilmiy adabiyot bilan ishlashga, manbalarni tanqidiy tahlil qilishga o'rgatadi. Statistik va tahliliy dasturlar (masalan, Eviews, Stata, SPSS) esa iqtisodiy ma'lumotlarni qayta ishlash va ekonometrik tahlil o'tkazish ko'nikmasini shakllantiradi.

Shunday qilib, faol metodlar tegishli tashkiliy shakl va zamonaviy vositalar bilan uyg'unlashgandagina to'liq samara beradi: metod - “nima qilish kerakligini”, tashkiliy shakl - “qayerda va qanday tashkil etilishini”, vosita esa - “qanday texnik imkoniyat bilan ta'minlanishini” belgilaydi.

Faol metodlarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlash uchun uzluksiz qayta aloqa (feedback) mexanizmi zarur bo'ladi. Bu mexanizm uch bosqichni - monitoring, tahlil va jarayonni takomillashtirishni - o'z ichiga oladi va o'qituvchiga qo'llanilayotgan metodlarni talabani haqiqiy ehtiyojlariga moslab borish imkonini beradi.

Xalqaro tajribada bu borada J. Willison va K. O'Reganing Research Skill Development (RSD) freymvorki keng tan olingan. Ushbu freymvork tadqiqotchilik ko'nikmalarini talabani mustaqillik darajasiga qarab bosqichma-bosqich rivojlanadigan jarayon sifatida ko'rib chiqishni, shu bilan birga har bir bosqichda aniq baholanadigan ko'rsatkichlarni belgilashni taklif etadi [9]. Bu yondashuv faol metodlarni tasodifiy emas, balki talabani mustaqillik darajasi oshib borishiga mos ravishda izchil qo'llash zaruratini asoslaydi.

Ishlab chiqilgan modelga muvofiq, baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi: tadqiqot metodlarini bilish darajasi, axborot manbalari bilan ishlash ko'nikmasi, ilmiy maqola va tezis yozish ko'nikmasi, ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmasi, natijalarni taqdim etish ko'nikmasi hamda refleksiya va o'z-o'zini baholash ko'nikmasi. Ushbu mezonlar bo'yicha talabani ko'rsatkichlari past, o'rta, yetarli va yuqori darajalarga ajratiladi, bu esa har bir talaba uchun individual rivojlanish traektoriyasini kuzatib borish imkonini yaratadi.

Qayta aloqa mexanizmining amaliy ahamiyati shundaki, u faqat yakuniy natijani emas, balki butun jarayonni - muammoni qo'yishdan tortib xulosa chiqarishgacha bo'lgan har bir bosqichni - nazorat qilish va zarur hollarda tuzatish imkonini beradi. Shu tariqa baholash tizimi nafaqat nazorat vositasi, balki faol metodlarning o'zini takomillashtirib boruvchi uzluksiz mexanizmga aylanadi.

#### XULOSA

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyot yo'nalishi talabalarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish faqat nazariy bilim hajmini oshirish orqali emas, balki talabani faol, mustaqil izlanuvchi subyekt sifatida tadqiqot jarayoniga jalb qiluvchi metodlar tizimi orqali samarali amalga oshiriladi.

Faol metodlar - muammoli o'qitish, case-study, loyiha metodi, brainstorming, ilmiy tadqiqot metodi va portfolio metodi - har biri tadqiqotchilik kompetensiyasining muayyan komponentini rivojlantirishga

xizmat qiladi, biroq ularning to'liq samarasi faqat tegishli tashkiliy shakllar va zamonaviy vositalar bilan uyg'unlashgandagina namoyon bo'ladi.

Faol metodlarni qo'llash jarayoni tasodifiy emas, balki talabning mustaqillik darajasi oshib borishiga mos ravishda izchil va bosqichma-bosqich tashkil etilishi, shuningdek uzluksiz qayta aloqa mexanizmi orqali monitoring qilinishi va takomillashtirilishi lozim. Aynan shu yondashuv iqtisodiyot yo'nalishi talabalarida barqaror va amaliyotga tayyor tadqiqotchilik ko'nikmalarining shakllanishini ta'minlaydi.

Kelgusi tadqiqotlar faol metodlar tizimini aniq o'quv jarayonida sinovdan o'tkazish, ularning ta'sirini miqdoriy ko'rsatkichlar orqali baholash hamda har bir metodning turli mustaqillik darajasidagi talabalar uchun optimal qo'llanilish shartlarini aniqlashtirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Dewey J. *Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education*. — New York: Macmillan, 1916. — 434 p.

2. Calma A. Using assurance of learning data to assess business students' research skills // *Quality Assurance in Education: An International Perspective*. — 2023. — Vol. 31, № 4. — P. 586-599. — DOI: 10.1108/QAE-01-2023-0003.

3. Allayarova S.N. Talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga jalb etishda professor-o'qituvchi pedagogik mahoratining ahamiyati // *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире: халкаро конференция материаллари*. — 2023. — Т. 1, № 3.

4. Abduqodirov A.A. *Pedagogik texnologiyalar*. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. — 160 b.

5. Kutbiddinova, R.A., Eromasova, A.A. & Romanova, M.A. The Use of Interactive Methods in the Educational Process of the Higher Education Institution // *International Journal of Environmental & Science Education*. — 2016. — Vol. 11, № 14. — P. 6557-6572.

6. Tawfik A.A. et al. How K-12 Teachers Adapt Problem-Based Learning // *Interdisciplinary Journal of Problem-Based Learning*. — 2021. — Vol. 15, Issue 1.

7. Seshan V., Matua G.A., Raghavan D., Arulappan J., Al Hashmi I., Roach E.J., Sunderraj S.E., Prince E.J. Case Study Analysis as an Effective Teaching Strategy: Perceptions of Undergraduate Nursing Students From a Middle Eastern Country // *SAGE Open Nursing*. — 2021. — Vol. 7.

8. Kokotsaki D., Menzies V., Wiggins A. Project-based learning: A review of the literature // *Improving Schools*. — 2016. — Vol. 19, Issue 3. — P. 267-277.

9. Willison J., O'Regan K. *Research Skill Development Framework*. — Adelaide: University of Adelaide, 2018. — URL: <https://www.adelaide.edu.au/rsd/>